

SEMENT ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALAR FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR

Kudaybergenov Azamat Shamuratovich

Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sement ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar va sanoat korxonalari faoliyatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va u bilan bog‘liq omillar muhokama qilingan. Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy qilishdagi asosiy omillar, jumladan, investitsiyalar, rahbariyatning strategik qarashlari va kadrlarni tayyorlash jarayoni tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalarning sanoatdagi ahamiyatini ko‘rsatish va ularning joriy etilishidagi kerakli choralarni aniqlashdir. Shuningdek, maqolada sanoat korxonalarida raqamlashtirishning ahamiyati va qulayliklari, ushbu yo‘nalishda respublikamizda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli korxona, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, transformatsiya, sanoat korxonalari, sement ishlab chiqaruvchi korxonalar, avtomatlashtirish, korporativ axborot tizimi samaradorlik.

I. KIRISH

Raqamli korxona - bu o‘z biznes-jarayonlarida turli hisobotlar ma’lumotlari va natijalaridan, uning ichki yoki tashqi manbalaridan olingan tahliliy ko‘rsatkichlardan foydalanadigan tashkilotdir. Bunday kompaniyadagi raqamli texnologiyalar butun biznes, ishlab chiqarish, mijozlar va pudratchilar bilan munosabatlarni qayta qurish hamda butun korxona doirasidagi jarayonlarni integratsiyalashtirishni nazarda tutuvchi kompaniyani boshqarish usullarini shakllantirish uchun zarurdir.

Bugungi kunda zavodlarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni yaxshilash, logistikani optimallashtirish va eng yaxshi mutaxassislarni keng jalb qilish kabi sement kompaniyalarining ish samaradorligini oshirish an’anaviy usullar sement sanoatiga salbiy omillar ta’siriga muvaffaqiyatli qarshi turish uchun yetarli emas. Ular orasida joriy umumjahon tanazzuli, iqtisodiy o‘sishning cheklangan istiqbollari, ekologik normativlar va talablarini kuchaytirish, yuqori malakali kadrlarni jalb qilishda raqobat va boshqalar ham turibdi.

Yuqorida sanab o‘tilgan xavf-xatarlar va uning sement kompaniyalari to‘g‘ri harakatlar strategiyasida qo‘llashi mumkin bo‘lgan yangi imkoniyatlar raqamli transformatsiya modifikatsiyani amalga oshiruvchi firmalar tomonidan yaxshiroq tushuniladi, chunki bu imkoniyatlarni amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalarda

amaliy tajriba, raqamlashtirishga yo‘l qo‘yuvchi jarayonlar va raqamli texnologiyalarning o‘zi talab etiladi.

Sement ishlab chiqarishni avtomatlashtirish - bu sement tayyorlash jarayonlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar, uskunalar va boshqaruv tizimlarini joriy etishdan iboratdir.

Sement eng muhim qurilish materiallaridan biri bo‘lib, uni ishlab chiqarish katta energiya va resurslarni talab etadi. Shu bois ham sement ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish tobora dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligini inobatga olib, tarmoqni rivojlantirishning zamonaviy yo‘llarini, mavjud muammolarni hal etish usullarini topish zarur.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, sement ishlab chiqarishning asosiy muammolari quyidagilardan iboratdir [9]:

- yuqori energiya sarfi. Sement ishlab chiqarish asosan klinkerni qizdirish va sementni pishirish uchun katta energiya talab etadi;
- chiqindilarning hosil bo‘lishi. Ko‘p miqdorda chiqindi hosil bo‘lib, uni utilizatsiya qilish kerak bo‘ladi;
- atrof muhitning ifloslanishi. Sement ishlab chiqarish havo, suv va tuproqni ifloslantiruvchi manbadir.

Bu muammolarni hal etish uchun yanada ekologik toza va samarali bo‘lgan yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, zararli moddalar chiqindilarini kamaytirish va chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimini yaxshilash tadbirlarini amalga oshirish zarur.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish jarayonida raqamlashtirish yuzasidan ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan. "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi marta 1994-yilda Kanadalik olim Don Tapskottning tomonidan ishlatilgan [1]. Muallif o‘z ishida sement ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar haqida gaprgan. Olim V.A. Plotnikovning tadqiqotlarida raqamlashtirish bu "axborotlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi bo‘lib, axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va vizualizatsiya qilish uchun raqamli texnologiyalardan keng ko‘lamda foydalanish bilan tavsiflanuvchi yangi qurilma va dasturiy taominotning birlashmasi bilan tavsiflanadi" deb ta’rif bergan [2]. Bundan tashqari u korxonalar raqamli texnologiyalardan foydalanganda erishiladigan bir qancha afzalliklarni sanab o‘tgan: - "raqamlashtirishda ishlab chiqarishning moslashuvchanligi va uning tez qayta konfiguratsiyasi, ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining dinamik o‘zgarishi hisobiga ortadi, bu esa raqobatdosh ustunlikni yaratadi va potensial foydaning o‘lishiga olib keladi; - raqamlashtirishda mahsulotlarni ishlab chiqishdan tortib to utilizatsiya qilishgacha bo‘lgan hayot siklining bosqichlarini axborot integratsiyasini ta’minlaydi, bu bizga nafaqat ishlab chiqarishni optimallashtirish, balki sifat, ekologik xavfsizlik, biznesning yangi imkoniyatlarini yaratish va hokazolarni samarali va har tomonlama hal qilish imkonini beradi. Olimlarning fikricha raqamlashtirishning rivojlanishi bilan korxoning biznes

modellari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shuning uchun ko'pgina mualliflar raqamlashtirish ta'rifini turlicha izohlaydilar. Masalan, rus olimi I.A. Arenkov raqamli transformatsiyaning korxona raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganadi. Muallifning ta'kidlashicha, "raqamli transformatsiya jarayonida korxona sifat o'zgarishi bosqichlaridan o'tadi, bu uning faoliyatining ishlab chiqarish, moliyaviy, moddiy, axborot sohalaridagi jarayonlarni takomillashtirishda namoyon bo'ladi, bu bizga zamonaviy texnologiyalarga moslashishga imkon beradi" [5]. Respublikamizda milliy iqtisodiyotni turli tarmoqlarida yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, ularda axborotlashtirish tizimlarini joriy yetish usullari, yangi axborot tizimlari asosida modellashtirish tamoyillari, korporativ boshqarish jarayonida avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish samaradorliklarini baholash, ular nazoratini amalga oshirish, axborot tizimi sharoitida iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari kabi masalalar V.K. Qobulovning asarlarida yoritilib o'tilgan [6]. O'zbekistonlik olimlar Ye.Muminova va boshqalar tadqiqotlarida mamlakat sanoatini rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi, korxonalar kooperatsiyasida elektron savdo hamda elektron shartnomalarning ahamiyati to'g'risida izlanishlar olib borilgan [7]. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Ma'lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo'shimcha qiymat yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida raqamlashtirish va axborotlar ta'siri asosida kuzatilayotgan jarayonlar sanoat va biznes korxonalari strategik rivojlanishida asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo'lmoqda.

III. METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini korxonalarni raqamlashtirish sohasida tadqiqot olib borayotgan mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt analitik kuzatish, normativ va ijobiy tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanildi. Maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Milliy Statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlari, Sanoat, savdo va investitsiya vazirligi materiallari va boshqada normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari ishlanmalari va boshqalardan foydalanildi.

IV. TAHLIL VA NATIJALAR


So'nggi o'n yillikda dunyo industrial jamiyatdan raqamli texnologiyalaridan foydalanish orqali ilmiy-ishlab chiqarish, ijtimoiy, shaxsiy-mai-shiy va madaniy muammolarni hal etishga qaratilgan raqamli iqtisodiyotga o'tish davrini boshidan kechirmoqda. Ushbu jarayon "raqamlashtirish" deb ataladi va AKTlari hamda elektron aloqa vositalari asosida axborot mahsulotlari va xizmatlarini yaratish, tarqatish va foydalanish bilan bog'liq-dir. Bu jarayon nafaqat alohida korxonalar, firmalar va tashkilotlarni, balki butun boshli tarmoqlar va korporatsiyalarni raqamlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Jamiyat a'zolarining axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda hal qiluvchi shart bu – yaxlit axborot makonining asosiy elementi sifatida korporativ axborot tizimlarini (KAT) yaratish va rivojlantirishdir.

Zamonaviy KATlari murakkab infratuzilmaga ega bo'lgan inson-mashina komplekslari bo'lib, shu jumladan funksional qism - korxona boshqaruvining funksional vazifalari to'plami va ushbu vazifalarni hal qilishni ta'minlaydigan qism - texnologik quyi tizimlar, ya'ni texnik vositalar, axborot, lingvistik, matematik, dasturiy ta'minot, tashkiliy-texnologik, ergonomik, kadrlar va huquqiy ta'minotni o'z ichiga oladi. Demak, korxonani raqamlashtirish - bu kompaniyaning biznes-jarayonlarini kompleks ravishda raqamlashtiradigan zamonaviy KATni yaratish va joriy etish jarayonidir.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda KATni joriy etish samaradorligining asosiy manbalari bo'lib, muntazam bir xil bajariladi-gan mehnatni umumiy qisqartirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamay-tirish, hujjatlar aylanishiga ketadigan vaqtni tejash va boshqalar hisob-lanadi. KAT biznes-jarayonlarni birgalikda amalga oshirish imkonini yara-tadi, guruhda ishlash jarayonlarida xodimlar faoliyatini muvofiqlash-tirish uchun sharoit hosil qiladi hamda umumiy axborot madaniyatini oshi-rishga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kompaniyalar tomonidan KATni yaratish-da ma'lum bir prinsiplarga rioya qilishga to'g'ri keladi (1-rasm). Ushbu prinsiplarning birortasiga KATni yaratishda rioya qilinmasa, u holda ush-bu tizim amaliyotda mukammal faoliyat ko'rsata olmaydi. Shuning uchun ham KATni loyihasini ishlab chiqishda ishchi guruh tomonidan keltirilgan prinsiplarning barchasini e'tiborga olishga to'g'ri keladi.



1 rasm. Kompaniyalar tomonidan korporativ axborot tizimlarini yaratishning asosiy prinsiplari.

Zamonaviy AKTlari va axborot resurslarini boshqarishni integratsiya qilish g'oyasi hozirgi kunda korporativ axborot tizimlarida amalga oshiril-moqda va u barcha korxona bo'limlari hamda barcha axborot foydalanuvchilari yagona ma'lumotlar

bazasiga asoslangan holda birgalikda ishlashini ta'minlash, shu kompaniyaning barcha biznes-jarayonlarini kompleks axborot bilan ta'minlashni tashkil etishdan iborat.

Korporatsiyaga kiradigan korxonalar, bo'limlar va ma'muriy idoralar odatda bir-biridan ancha uzoq joylashgan bo'ladi. Ularning axborot o'zaro bog'liqligi korporatsiyaning kommunikatsiya tuzilmasini tashkil etadi, bu tuzilmaning asosini axborot tizimi tashkil qiladi.

Korporativ axborot tizimi (KAT) — bu inson-mashina tizimi bo'lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda korxonani rivojlantirishga doir boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot qo'llab-quvvatlashni kompleks ta'minlaydi va biznes daromadlarini oshirish maqsadida yaratilgan.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, KAT negizida kompaniyaning shunday axborot tizimi tushuniladiki, unda ular quyidagi minimal talablarga javob berishi lozim bo'ladi:

- axborot tizimining funksonal jihatdan to'liqliligi;
- KAT takibidagi axborotlarning ishonchli himoyalanganligi;
- tizimni amaliyotga moslashtirish va kuzatib borish instrumental vositalarining mavjudligi;
- taqsimlangan axborot tarmoqlarida ishlash imkoniyati va masofadan kirib ishlash imkoniyatining mavjudligi;
- kompaniyada faoliyat ko'rsatayotgan turli axborot tizimlari bilan o'zaro ma'lumotlar bilan almashish imkoniyatining yo'lga qo'yilishi mumkinligi;
- axborot ta'minotini yagona makonga mujassamlashtirish imkoniyati;
- amaliyotda foydalanish jarayonida maxsus vositalarning mavjudligi.

KAT ichiga korxonaning yagona infratuzilmasi, ma'lumotnoma va me'yo-riy ma'lumotlar, hujjat aylanmasi, infratuzilmani qo'llab-quvvatlovchi xodimlar, shuningdek korxonaning asosiy biznes jarayonlarini amalga oshiruvchi va tizimdan foydalanuvchi xodimlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, KATning o'zaro bog'langan AKT majmuasi quyidagilarni ta'minlashi lozim: tizim foydalanuvchilarining birgalikda ishlash imkoniyati; tizim-ning turli modullarini integratsiya qilish imkoniyati; turli ish joylarida bitta muammoni bir vaqtning o'zida hal etish imkonini beradigan taqsimlangan hisoblashlarni amalga oshirish imkoniyati; umumiy ma'muriy mar-kazdan boshqariladigan murakkab biznesni avtomatlashtirilgan holda bosh-qarish imkoniyati; tizimning ishonchligi, axborot yo'qolishi, tasodifiy ishdan chiqishlar va ruxsatsiz kirishlardan himoyalanganligi [10].

KATning maqsadi — korxonaning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun uning barcha resurslarini kompleks boshqarish jarayonlarini tez-kor va samarali axborot bilan ta'minlashdan iborat. Korporativ axborot tizimi muayyan korxonaning biznes-strategiyasini tashkil etilgan axborot texnologiyalari, hisoblash texnikasi, elektron aloqa vositalari va yuqori malakali kadrlar orqali amalga oshiradi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, xususiyatlari jihatidan KAT quyidagilarga imkon beradi:

- umumiy biznes-jarayoni bilan birlashtirilgan tashkilotning turli geografik

taqsimlangan bo'linmalari uchun yagona axborot makonini yaratish;

- qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tezkorlik bilan o'tkazishni keskin ravishda jadallashtirish, shuningdek funksional quyi-tizimlarning holatini real aks ettiradigan ishonchli, dolzarb va ziddiyat-siz ma'lumotlarni taqdim etish;

- elektron hujjatlar bilan ishlashning hujjatlar xavfsizligi, bosh-qarilishi va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan yagona standartini joriy etish;

- guruh ishini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar va vositalarni joriy etish orqali xodimlar va bo'limlarning ishini avtomatlashtirish va ish unumdorligini oshirish;

- boshqaruv infratuzilmasini korporativ bilimlar bilan to'ldirish.

Sement sanoatini raqamlashtirish jarayonlari bir nechta bosqichni o'z ichiga oladi. Avval raqamlashtirish talablari va maqsadlari belgilanadi, so'ngra ishlab chiqarishda qo'llaniladigan axborot tizimlari tanlanadi. Shundan so'ng axborot tizimi o'rnatiladi, uskunarlar sozlanadi, xodimlar o'qitiladi. Avtomatlashtirish tizimini korxonaning boshqa tizimlari bi-lan integratsiyalashtirish muhim bosqichdir. Nihoyat, axborot tizimi ishini monitoring qilish va nazorat qilish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun ma'lumotlar tahlili amalga oshiriladi.

Sement zavodlarida avtomatlashtirishning joriy etilishi mahsuldorlikning sezilarli darajada oshishiga, xarajatlarning kamayishiga va mahsulot sifatining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. Biroq buning uchun mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirish zarur.

Shunday qilib, avtomatlashtirish sement ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik vaziyatni yaxshilashda muhim omil bo'lishi mumkin. Ushbu maqsadlarga erishish uchun avtomatlashtirish va ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish sohasidagi tadqiqot va ishlanmalarni davom ettirish zarur.

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, sement ishlab chiqarishda raqamlashtirishni joriy etishning afzalliklari quyidagilardan iboratdir [9]:

- byeton aralashmalaridan chiqindilar miqdorini kamaytirish. Ishlab chiqarish jarayonlarini barcha bosqichlarda nazorat qilish chiqindilar miqdorini kamaytiradi;

- unumdorlikni oshirish. Avtomatlashtirilgan tizimlar kechayu-kunduz ishlashi mumkin, bu esa samaradorlikni oshiradi;

- energiya xarajatlarini kamaytirish. Avtomatlashtirish energiyadan foydalanishni optimallashtirishi mumkin, bu esa uning xarajatlarini kamaytiradi;

- sifat nazoratini yaxshilash. Avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida mahsulot sifatini aniq nazorat qilish imkonini bermiqda.

So'nggi yillarda sement tarmog'i urbanizatsiya bo'yicha keng ko'lamli rejalarning bevosita ifodasiga aylandi, ya'ni respublikada infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, sanoat va uy-joy qurilishi ushbu materialni iste'mol qilishning shunchalik sezilarli o'sishiga olib keldi-ki, sanoat sektorida quvvat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishdan boshqa narsa qolmadi. Tezligi, arzonligi va ekologik jihatdan sement qurilishning zamonaviy talablariga javob beradigan muqobil material bo'lib qolmoqda.

Korporativ axborot tizimi (KAT) - bu kompaniyaning barcha darajalar-dagi biznes-jarayonlarini, jumladan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha ochiq, integratsiyalashgan, real vaqt-da ishlovchi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi. Bunda biznes-jara-yonlarni raqamlashtirish darajasi kompaniya foydasini maksimal darajada ta'minlash tamoyiliga asosan belgilanadi (2-rasm).

Olib borgan tahlillarimiz KATning quyidagilar uchun mo'ljallangan-ligini ko'rsatmoqda:

- korxonaning barcha boshqaruv, biznes va ishlab chiqarishning aksariyat jarayonlari faoliyatini ta'minlash;
- vertikal va gorizontaal bo'yicha korxonani boshqarish vazifalarini bajarish maqsadida korxona va tashqi muhit haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish.



2-rasm. Korporativ axborot tizimining tarkibiy jihatdan tuzilishi.

Bunday KATlar uchun yuqori tezkorlik va nihoyatda sodda foydalanish xususiyati xos bo'ladi. KATning eng muhim jihati raqamlashtirish doirasi-ni kengaytirish bo'lishi kerak, bu esa yopiq, o'z-o'zini boshqara oladigan ti-zimni yaratish imkonini beradi. Bunday KAT o'z faoliyati tamoyillarini o'zgaruvchan va tezkor tarzda qayta tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Oxirgi yillarda mulkchilikdan qat'iy nazar kompaniyalarda guruhlar va korporativ tizimlar uchun ishlashning ishonchliligi va ma'lumotlarning saqlanishiga bo'lgan talablar sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu xusu-siyatlar ma'lumotlar butunligi, ko'rsatmalar va tranzaksiyalar muvaffaqiyatli bajarilishini serverlarda ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, KAT tomonidan quyidagi muammolar-ni ham hal qilish talab etiladi:

1) korxonada menejment vazifalari to'liq qo'yilmasligi. Balki, bu nuqta eng muhim va murakkabdir. Ko'pchilik rahbarlar korxonalarini faqat o'z tajribasiga, intuitsiyasiga, dunyoqarishiga tayanib boshqarishadi hamda korxona holati va rivojlanishi haqida tarkiblanmagan ma'lumotlar asosida qaror qabul qiladilar. Qoidaga

ko‘ra, rahbardan o‘z korxonasining faoliyati strukturasi yoki boshqaruv qarorlari qabul qilinadigan asosiy me‘yorlarni biror shaklda tasvirlab berish so‘ralganda, vaziyat tezda boshi berk ko‘chaga kirib qoladi.

Bizning fikrimizcha, rahbar uchun KATning eng muhim jihatlaridan biri — bu boshqaruv hisobi va moliyaviy nazorat modullaridir. Endi har bir funksional bo‘limni moliyaviy hisob markazi sifatida belgilash mumkin, uning rahbari esa tegishli moliyaviy javobgarlik darajasiga ega bo‘la-di. Bu esa, o‘z navbatida, har bir rahbarning mas‘uliyatini oshiradi va yuqori boshqaruv uchun alohida rejalar va byudjetlarni aniq nazorat qilish imkonini beradigan samarali vositalar majmuasini taqdim etadi.

Aynan shunday ishchi guruhning rahbari va KAT administratorini tanlash masalasi juda muhim hisoblanadi. Bunday rahbar nafaqat bazaviy AKTni bilishi, balki biznes yuritish va boshqaruv sohasida ham chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Yirik G‘arb kompaniyalari amaliyotida bunday shaxs odatda CIO (Chief Information Officer – axborot texnologiyalari bo‘yicha di-ректор) lavozimini egallaydi va kompaniya rahbariyati iyerarxiyasida ikkinchi o‘rinni egallaydi. Respublikamiz amaliyotida esa, KATni joriy etilayotganda bunday vazifani odatda AKT bo‘limi boshlig‘i yoki shu kabi lavozim-dagi shaxs bajaradi.

V. XULOSA

Shu tariqa, KATni loyihalashtirish, ishlab chiqarish va joriy etishda kompaniyalar quyidagi tavsiyalarni inobatga olishlari lozim bo‘ladi:

- loyihani joriy etishdan avval, uning maqsadlarini iloji boricha aniq va rasmiy tarzda ifoda etish, hamda ushbu maqsadlarga erishish darajasini baholash uchun mos o‘lchov mezonlarini belgilab chiqish lozim;

- hech qachon loyihagacha bo‘lgan tahlil bosqichga beparvolik qilmaslik kerak. Ushbu bosqichdagi har qanday noaniqlik keyingi bosqichlarda o‘n kar-ra ko‘p yo‘qotishlarga olib keladi. Shuning uchun, korxonani to‘liq tahlil qilish va menejment vazifalarini belgilash uchun professional konsul-tantlarni jalb etgan ma‘qul. Bunday xarajatlar, har qanday holatda, o‘zini oqlaydi. Biroq, bu borada ishonchli va nufuzli kompaniyalar bilan ishlash zarur, chunki afsuski, maslahatchilardan tashqari, o‘zini maslahatchi deb ko‘r-satuvchi soxta mutaxassislar ham mavjud;

- KAT yaratish uchun dasturiy ta‘minotni tanlashda juda ehtiyotkorlik va asoslangan yondashuv talab etiladi, chunki xatolar qimmatga tushishi mumkin. O‘z dasturchilari yordamida tizim ishlab chiqishga urinmaslik kerak. Tayyor tizimlar mutaxassis jamoalar tomonidan ko‘p yillik tajriba asosi-da yaratiladi va ularning asl tannarxi sotuv narxidan ancha yuqori bo‘ladi - bu holat dasturiy va intellektual mahsulotlarga xos bo‘lgan ma‘lum para-doks hisoblanadi;

- ko‘pchilik kompaniyalar uchun AKTdagi o‘zgarishlar natijasida operatsion va vositachilik xarajatlari qisqaradi. Bu esa tashkilot yoki butun tar-moq darajasida bajariladigan ishlar va qabul qilinadigan qarorlarni muvofiqlashtirish natijasidir. Kompaniyalar butun tashkilotni qamrab oladigan va asosiy biznes-jarayonlarni integratsiya qiluvchi KATlar yara-tishdan manfaatdor, keyinchalik esa ushbu biznes-jarayonlarni tarmoqdagi boshqa kompaniyalar bilan bog‘lashni maqsad qiladi.

Shuningdek, kompaniya-lar tejamkorlik va samaradorlikka erishish uchun boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik qilishga va o'z axborot infratuzilmasini integratsiya qilishga intiladi. Shu sababli, biznes-jarayonlarni va ularga mos KATni tanlash va moslashtirishda, tashkilotning hamkorlari faoliyatidagi mavjud biznes-jarayonlar va ularning axborot tizimlari inobatga olinishi lozim;

- KATni joriy qilish loyihasi boshqa tashkiliy va tijoriy loyihalar orasida eng yuqori ustuvorlikka ega bo'lishi kerak. Shuningdek, loyiha rahbariga va ba'zan butun loyiha jamoasiga ham katta vakolatlar berilishi lozim;

- barcha xodimlar orasida joriy etishning muqarrarligi hissini yara-tish loyihaga zaruriy dinamikani ta'minlaydi, hatto kutilmagan qiyinchi-liklar yuzaga kelganda ham, chunki har qanday axborot loyihasida bu kabi muammolar paydo bo'lishi mumkin. Ijobiy motivatsiya va tashkiliy chora-tadbirlar yangi texnologiyalarni o'zlashtirish sur'atini oshirishga xizmat qilishi lozim, kamaytirmasligi kerak.

Pirovardida, KATni joriy etish qariyb ta'mirlash kabidir - uni to'liq yakunlash mumkin emas, faqat to'xtatish mumkin. AKTlari eng tez rivoj-lanayotgan sohadir. Shu bois ham joriy etish asosan hech qachon yakunlanmay-di, AKTlari va korxona faoliyatini boshqarish metodologiyalari taraqqiyo-ti bilan birga KAT foydalanish jarayonlarida doimiy ravishda takomil-lashtirilib borilishi lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tapscott D. The digital economy / D. Tapscott - Text: electronic// - 1994. - URL: <https://dontapscott.com/books/the-digital-economy/> (дата обращения 08.11.2020).
2. V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).
3. Thomas Mesenbourg. Measuring the digital economy. The Netcentric Economy Symposium the Netcentric Economy Symposium University of Maryland University of Maryland. March 30, 2001. Retrieved from: 194 WWW.INFOCOM.UZ "RAQAMLI IQTISODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 11-SON <https://www.census.gov/content/dam/Census/library/working-papers/2001/econ/umdigital.pdf>
4. Erik Brynjolfsson and Brian Kahin. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA. Published: January 25, 2002. Publisher: The MIT Press ISBN:9780262523301
5. Аренков И.А.1, Смирнов С.А.2, Шарафутдинов Д.Р.2, Ябурова Д.В. Санкт-Петербургский государственный экономический университет, статья в журнале Российское предпринимательство - Том 19, Номер 5 (Май 2018).
6. Кобулов В.К. (1998) Алгоритмизация в социально-экономических системах. Tashkent: Fan, 320 s. (Kobulov V.K. (1998).
7. Muminova, E., Honkeldiyeva, G., Kurpayanidi, K., Akhunova, S., & Hamdamova, S. (2020). Features of Introducing Blockchain Technology in Digital Economy Developing Conditions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 159, p. 04023). EDP Sciences.

8. <https://www.huawei.com/uz-uz/news/uz/2021/digital-industry-andintelligent-twins>
9. <https://mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>
9. Калмуратов Б. С. Тенденции и приоритетные направления развития промышленности региона //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 12. – С. 215-220.
10. Калмуратов Б.С. Стратегия развития инновационного управления промышленного комплекса Республики Каракалпакстан. **International Scientific Journal** Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA Issue 01, volume 91 published January 31, 2021. 379-387 стр.